1.4-AMALIY ISH. LABORATORIYA JIHOZLARI

MAQSAD: laboratoriya jihozlarini o‘rganish.

KO‘NIKMALAR: kuzatish, identifikatsiya.

1 Jadvalda keltirilgan jihozlarni ko‘rib chiqing. Har bir jihoz nomini va undan qanday maqsadda foydalanilishini yozing.

Jihoz	Jihoz nomi va qo‘llanilishi	Jihoz	Jihoz nomi va qo‘llanilishi
			
			
			
			
			
			
			

REFLEKSIYA

1 1-bobni o‘zlashtirganingizni qanday tasdiqlaysiz? Mos katakka tasdiq belgisini (✓) qo‘ying.

Men...	Ha	Ishonchim komil emas	Yo‘q	Darslikdagi mavzu(lar)
fan va texnikaning ahamiyatini tushunaman				1.1
fan bilan bog‘liq ko‘nikmalarni bilaman va tushunaman				1.2 1.3
laboratoriyalarda xavfsizlik qoidalariga amal qila olaman				1.4
xavfsizlik belgilarini taniyman				1.4
har xil turdagi laboratoriya jihozlarining vazifalari va ulardan qanday foydalanishni tushunaman				1.5

2 Darslikdagi yaxshi o‘zlashtirilmagan mavzularni yanada puxta egallash uchun qanday usullarni qo‘llashingiz haqida yozing.

MUSTAHKAMLASH

A qism: test topshiriqlari

To‘g‘ri javobni maxsus ajratilgan joyga yozing.

1 Quyida berilganlarning qaysi biri biologiyaning o‘rganish obyekti hisoblanadi?

A. Tirik organizmlarning xususiyatlari
B. Osmon jismlari: sayyoralar va yulduzlar
D. Moddalarning xususiyatlari, kimyoviy jarayonlar
E. Kuch va energiya turlari ( )

2 Alisher telefilm orqali ona kit o‘z bolasini sut bilan boqishini kuzatdi. Ushbu kuzatish natijasida olingan xulosani aniqlang.

A. Kitlar okeanda yashaydi.
B. Kitlarning orqa oyoqlari yo‘qolib ketgan.
D. Kitlar sutemizuvchi hayvon hisoblanadi.
E. Kitlar qalin yung qoplamiga ega. ( )

3 O‘simlikning o‘sish tezligiga suv miqdorining ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotda qaysi o‘zgaruvchi(lar)ni o‘zgartirish kerak?

I. Suv miqdorini
II. Yorug‘lik miqdorini
III. Havo haroratini


A. Faqat I
B. Faqat III
D. I va III
E. II va III ( )

4 Shodiya buyum oynasiga joylashtirilgan biologik obyektning yupqa kesmasini tekis joylashtirmoqchi. Shodiya qaysi jihozdan foydalanishi zarur?

A. Skalpel
B. Qoplagich oyna
D. Tomizg‘ich (pipetka)
E. Preparatsiya ignasi ( )

5 Sut kislotasi bakteriyalarining ko‘payish tezligi tasvirlangan grafikni tahlil qiling. Grafikda taqdim etilgan ma’lumotlar asosida chiqarilgan har bir to‘g‘ri xulosaga “ha”, noto‘g‘ri yoki mavzuga mos kelmaydigan xulosaga “yo‘q” deb javob bering.

Bakteriyalarning ko‘payish tezligi:
1) muhit haroratining o‘zgarishiga doim to‘g‘ri proporsional; ( )
2) harorat 34 °C ga yetgach kamayadi; ( )
3) harorat 30 va 40 °C bo‘lganida ko‘payish tezligi bir xil; ( )
4) harorat 20 dan 35 °C gacha o‘zgarganda ortadi; ( )
5) haroratga bog‘liq holda o‘zgaradi. ( )



B qism: qisqa va batafsil javobli savollar

Javoblaringizni maxsus ajratilgan qatorlarga yozing.

1 Hozirgi kunda internetdan turli maqsadlarda keng foydalanilmoqda.

A. Internet ilm-fan mahsulimi yoki texnologiya? Javobingizni izohlang.

B. Internetning ijobiy va salbiy jihatlariga bittadan misol yozing.

Ijobiy jihati:

Salbiy jihati:

D. Internetdagi barcha ma'lumotlarga to'liq ishonish mumkin emas. Ushbu munosabat fanni o'rganishda qanday ahamiyatga ega?

E. Internetda ko'plab ma'lumotlar mavjudligi o'zgalarning ilmiy-ijodiy ishini ko'chirib, o'z ishi sifatida taqdim etish, ya'ni plagiatga sabab bo'lishi mumkin. Bu halollikka to'g'ri kelmaydi. Fanni o'rganishda plagiatning nomaqbulligiga bitta sabab keltiring.

2 Siz suv miqdori o'simlikning o'sish tezligiga qanday ta'sir etishini tadqiq etmoqchisiz.

A. Tadqiqot maqsadini yozing.

B. Erkli o'zgaruvchi va nazorat o'zgaruvchilarni yozing.

Erkli o'zgaruvchi:

Nazorat o'zgaruvchilar:

D. Tadqiqot davomida qanday kuzatish(lar) va o'lchov(lar)ni amalga oshirishingiz zarur?